ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Yusupbayev Islom Bahodir o'g'li

islomyusupbayev@gmail.com

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va Mudofaa Universitetining
Axborotkommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti, mayori

VATANPARVAR YOSHLARNI TARBIYALASHDA MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARNINRG O'RNI

Annotatsiya: Maqola bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan qadriyatlar masalasiga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada xalqimiz tomonidan asrlar davomida to'plangan ulkan ma'naviy va siyosiy tajriba, ajdodlarimizning bu boradagi qimmatli g'oyalari, turmushimizga singib ketgan betakror qadriyatlar ham chuqur tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qadriyat, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, din, vijdon, imon, e'tiqod, mafkura.

Аннотация: Статья посвящена проблеме ценностей, которая является одной из самых актуальных проблем современности. В статье также представлен глубокий анализ огромного духовного и политического опыта нашего народа на протяжении веков, ценных идей наших предков в этом отношении и уникальных ценностей, которыми пронизана наша жизнь.

Ключевые слова: ценность, натсиональная ценность, общечеловеческая ценность, религия, совесть, вера, вера идеология.

Abstract: The article is devoted to the issue of values, which is one of the current issues of today. The article also provides an in-depth analysis of the vast spiritual and political experience accumulated by our people over the centuries, the valuable ideas of our ancestors in this regard, the unique values instilled in our lives.

Keywords: value, national value, human value, religion, conscience, faith, faith, ideology.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli va vatanparvar ruhda tarbiyalash dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishi, avvalo, yoshlarning milliy o'zlikni anglash darajasi, tarixiy xotirasi hamda ma'naviy qadriyatlarga sodiqligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda milliy va ma'naviy qadriyatlarning o'rni beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg'usi, avvalo, milliy qadriyatlar, tarixiy meros va madaniy an'analarni o'zlashtirish orqali shakllanadi. Shu bilan birga, vatanparvarlik shaxsning fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy faolligi hamda jamiyat oldidagi mas'uliyatini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar tarbiyasida qadriyatlar tizimi asosiy o'rin tutib, ularning dunyoqarashi, xulq-atvori va ijtimoiy faoliyatini shakllantiradi.

Shuningdek, zamonaviy sharoitda yoshlarning ma'naviy kamolotida milliy qadriyatlar bilan bir qatorda umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa yosh avlodni nafaqat o'z Vataniga sadoqatli, balki keng dunyoqarashga ega, ijtimoiy faol shaxs

sifatida tarbiyalash imkonini beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda milliy va ma’naviy qadriyatlarning o‘rni, ularning yoshlar ongiga ta’siri hamda ushbu jarayonni takomillashtirish masalalarini ilmiy jihatdan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Vatanparvar yoshlarni tarbiyalash masalasi zamonaviy pedagogika va ijtimoiy fanlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda ushbu jarayonda milliy va ma’naviy qadriyatlarning o‘rni alohida ta’kidlanadi.

Tadqiqotchilar fikricha, vatanparvarlik avvalo shaxsning ijtimoiy va ma’naviy qadriyati sifatida shakllanadi hamda u yoshlarning ijtimoiy faolligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Xususan, patriotizm yoshlarning bilim, dunyoqarash va axloqiy tamoyillari bilan uzviy birlikda rivojlanishi aniqlangan.

Bir qator tadqiqotlarda milliy qadriyatlar yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ko‘riladi. Jumladan, yoshlarni tarbiyalashda tarixiy meros, milliy an’analar va madaniyatga hurmat muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan . Shu bilan birga, milliy qadriyatlar shaxsda fuqarolik pozitsiyasi va jamiyat oldidagi mas’uliyat hissini shakllantiradi.

Ilmiy ishlarda ma’naviy qadriyatlar – axloq, e’tiqod, vijdon, burch va mas’uliyat kabi tushunchalar vatanparvarlikning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ongida ma’naviy qadriyatlar rivojlanishi ularning jamiyatdagi faol ishtirokini va ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi.

Boshqa tadqiqotlarda vatanparvarlik yoshlarning siyosiy va fuqarolik madaniyatini shakllantirishda muhim omil ekanligi qayd etilgan. U milliy o‘zlikni anglash, tarix va an’analarga hurmat orqali shakllanib, shaxsning jamiyat hayotidagi ishtirokini belgilaydi.

Shuningdek, pedagogik tadqiqotlarda ta’lim tizimi vatanparvarlikni shakllantirishning asosiy instituti sifatida e’tirof etiladi. Oliy ta’lim muassasalari va maktablarda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar orqali yoshlarning milliy, ma’naviy va madaniy qadriyatlarga sodiqligi rivojlantiriladi.

Zamonaviy yondashuvlarda esa vatanparvarlikni shakllantirish kompleks jarayon sifatida talqin qilinadi. Unda aksiologik (qadriyatga asoslangan), shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, ayrim tadqiqotlarda globallashuv sharoitida milliy va ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish vatanparvarlikni rivojlantirishning asosiy sharti sifatida ko‘rsatiladi. Yoshlarning milliy o‘zligini anglash va madaniy merosga hurmat bilan qarashi ularning vatanparvarlik ruhini mustahkamlaydi.

Yana bir muhim jihat shundaki, vatanparvarlikni shakllantirish tizimli va uzluksiz pedagogik jarayon bo‘lib, bunda oila, ta’lim muassasalari va jamiyat hamkorligi muhim rol o‘ynaydi.

ASOSIY QISM

Umuminsoniy qadriyatlar inson ma’naviy, ijtimoiy kamolotning qandaydir alohida, boshqalardan ajralgan tomoni emas. Umuminsoniy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlarning umumlashgan ifodasidir. Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyatga xos qadriyatlar asosida tashkil topadi va rivojlanadi, ular ayni vaqtda barcha milliy qadriyatlarning bir-biriga yaqinlashishi va rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Bizning qadimiy va go‘zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e’tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy

sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dinining o‘rni beqiyosdir. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bu haqda shunday deydi: “Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharafli burchimizdir. Islom – haqiqatni anglash demakdir, u odamzotni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo‘lishni o‘rgatadi. Biz islom dinidan zo‘ravonlik va xunrezlik maqsadlarida foydalanishga urinayotgan qimsalarni keskin qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Muqaddas dinimizni doimo himoya qilamiz”. Shuning uchun islom dini va ma’naviy qadriyatlari bilan bog‘liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko‘tarilishida ona yurtimizda tug‘ilib kamolga yetgan ulug‘ allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Vatanparvarlik faqat qo‘liga qurol olib Vatan uchun kurashish emas. fan, madaniyat, amaliy mehnat malakalarini chuqur egallab, ona-yurt dovrug‘ini olamga yoyish ham vatanparvarlikdir. Ko‘plab buyuk vatandoshlarimiz fan, madaniyat, yuksak amaliy san’at malakalarini egallab, rivojlantirib o‘z vatanlarining obro‘sini olamga yoyganlar.

“Qadriyat” deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim.

Qadriyat – har bir inson uchun, oila va jamoa, millat va xalq uchun aziz va ardoqli, muqaddas va mu’tabaranaladigan g‘oya va prinsip, meros va boylik, munosabat va ne’matlar bo‘ladi. Mana shular qadriyat deb ataladi. Qadriyat deganda, biz ming yillar davomida shakllangan, odamlarning hayoti, ichki dunyosidan mustahkam o‘rin olgan, hech qaysi rasmiy hujjatlarda aks etmagan bo‘lsa-da, unga barcha amal qiladigan, insonning qon-qoniga singib ketgan an’ana va udumlarni tushunamiz. Lo‘nda qilib aytganda, odamzod bor ekan, millat bor ekan, shu millatni ifoda etadigan, asrlar mobaynida qandaydir muqaddas darajaga ko‘tarilib qolgan alomat-hususiyatlar ham u bilan birga yashaydi.

“Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o‘rtasida obro‘ga, e’tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasi” degan ta’rif berilgan. Qadriyatlarni bunday ta’riflash uning mohiyatini ancha yorqin ifodalasa-da, lekin qadriyatlarga berilgan ta’riflar ichida o‘zining ilmiyligi bilan boshqa ta’riflardan ajralib turadi.

Demak, insoniyatning eng umumiy jamoasi bo‘lgan jamiyatgina umuminsoniy qadriyatlarning yaratuvchisi va saqlab turuvchisidir.

Insonparvarlik g‘oyalariga sadoqat, demokratiya, ijtimoiy adolat hamma yerda barqaror bo‘lishiga intilish, inson huquqlari poymol etilishiga yo‘l qo‘ymaslik, barcha xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo‘lgan kurashlarini himoya qilish, kishilarni do‘stlik, hamkorlik va hamdardlikka chorlash, hamma yerda tinchlik, osoyishtalik qaror topishiga harakat qilish, atrofmuhitni toza saqlash umuminsoniy qadriyatlarning hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etayotgan jihatlaridir.

Bu qadriyatlar butun insoniyat tomonidan qo‘lga kiritilgan fan, texnika, madaniyat, ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish borasidagi yangi jihatlar, demokratiya, qonunchilik, adolatni barqarorlashtirish borasidagi yutuqlardan ham iborat bo‘lib, ulardan oqilona foydalanish respublikamizni jahondagi rivojlangan davlatlardan biriga aylantirish ishiga ham xizmat qiladi. Bu borada biror chekinishlarga, milliy maxdudlik va kalondimog‘likka yo‘l

qo‘yish nihoyatda katta yuqotishlarga olib kelishi mumkin. Umuminsoniy qadriyatlar mahalliy sharoit, imkoniyatlar, tarixiy an’analar bilan bog‘langandagina kerakli samara beradi.

Mintaqaviy qadriyatlar ham umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘langan. Qadriyatlarning bu turkumi bir-biriga yaqin bo‘lgan sharoitlarda yashagan va mehnat qilgan, tarixi tutash bo‘lgan mamlakatlar va xalqlarda uchraydi. Bu qadriyatlar hozirgi kunda ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

O‘rta Osiyo xalqlari ming yillar davomida bir-biri bilan yaqindan iqtisodiy va siyosiy aloqalar o‘rnatganlar. Ularning turmush sharoitlari, tili, madaniyati, dini, urf-odatlari bir-biriga yaqin bo‘lishi ko‘plab umummintaqaviy qadriyatlar shakllanishiga olib kelgan. Bu qadriyatlar turli joylarda bir-biridan biroz farq qilsa-da, mohiyat jihatidan yaqindir.

Mehmondo‘stlik, bolajonlik, yaqin qo‘ni-qo‘shnichilik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish, qarindosh-urug‘lar, do‘stlar bilan yaqin aloqada bo‘lish, saxiylik, halol bilan xaromni farqlash O‘rta Osiyo xalqlarining barchasiga xos bo‘lgan ma’naviy fazilatlardir. Garchand mehmondo‘stlik bilan bog‘liq udumlar mintaqamizning hamma yerida keng tarqalgan yaxshi an’ana bo‘lsa ham ular turli joylarda bir-biridan farq qiladi.

Qadriyatlarning eng muhim turlaridan yana biri - milliy qadriyatlardir. Millat mavjud ekan milliy qadriyatlarning ahamiyati aslo kamaymaydi. Millatlarning ma’naviyat jihatidan bir-biriga yaqinlashib borishi ham milliy qadriyatlarning rivojlanish va amal qilish imkoniyatlarini kamaytirmaydi, balki kengaytiradi. Umuman olib qaraganimizda, milliy qadriyatlar har bir millatning mohiyatini, uning muayyan mustaqil ijtimoiy-etnik birlik ekanini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biridir.

Albatta, millatning ijtimoiy tarkibida o‘zgarishlar bo‘lishi, turli xalqlar o‘rtasidagi aloqalar yaqinlashib borishi milliy qadriyatlar o‘sib, kengayib borishiga xizmat qiladi. Lekin yangi sharoitlarda, yangicha talab va ehtiyojlar asosida shakllanib qola beradi. Yangi vaziyatlarda shakllanayotgan qadriyatlar milliylik jihatlarini o‘ziga singdirganidagina hayotga kengrok, tezroq singish imkoniga ega bo‘ladi.

Uzoq vaqt davom etgan kuchli mafkuraviy tazyiqqa qaramay O‘zbekiston xalqi avloddan-avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an’analarini saqlab qolishiga muvaffaq bo‘ldi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, mustaqillik bilan bog‘liq bo‘lgan vatanparvarlik faqat tarixiy o‘tmishni chuqur anglashdan iborat emas. Bu o‘rinda vatanimiz oldida turgan hozirgi vazifalar va ularni bajarish imkoniyatlarini bilish, bu borada ijtimoiy fanlar doirasida amalga oshiriladigan mashg‘ulotlar davomida ustozlar jonbozlik, fidoyilik namunalarini ko‘rsatish ham kerak. Mas’uliyatli, tarixiy burilish pallasida shaxsiy manfaatdorlik kayfiyati qanchalik kuchaymasin, Vatan, Istiqlol masalalarini soyada qoldirib bo‘lmaydi.

1-jadval. Vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda milliy va ma’naviy qadriyatlarning o‘rni

№	Qadriyat turi	Mazmuni	Tarbiyaviy ta’siri	Natija
1	Milliy an’analar	Urf-odatlar, marosimlar, milliy meros	Yoshlar ongida milliy o‘zlikni shakllantiradi	Vatanparvarlik hissi kuchayadi
2	Ma’naviy qadriyatlar	Axloqiy me’yorlar, e’tiqod, odob	Shaxsning ichki dunyosini boyitadi	Ma’naviy barkamollik rivojlanadi


3	Tarixiy meros	Ajdodlar jasorati, tarixiy shaxslar faoliyati	Faxr va g‘urur tuyg‘usini uyg‘otadi	Milliy iftixor shakllanadi
4	Vatanparvarlik g‘oyalari	Vatanga sadoqat, fidoyilik tushunchalari	Yoshlarni himoya va xizmatga ruhlantiradi	Fuqarolik mas’uliyati oshadi
5	Oilaviy qadriyatlar	Oila, hurmat, mehr-oqibat	Tarbiyaning asosiy muhitini yaratadi	Ijtimoiy barqarorlik ta’minlanadi
6	Madaniy meros	Adabiyot, san’at, milliy qadriyatlar	Estetik did va tafakkurni rivojlantiradi	Barkamol shaxs shakllanadi

Manba: Muallif tomonidan milliy pedagogika va tarbiya sohasidagi ilmiy adabiyotlar asosida tuzilgan.Mirziyoev Sh.M. (2017, 2019) asarlari, Ishmuxamedov R., Yuldashev M. (2013), Satib-Aldiev A.A. (2007) hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida umumlashtirildi.

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, milliy va ma’naviy qadriyatlar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim va ajralmas omili hisoblanadi. Xususan, milliy an’analar va tarixiy meros yoshlar ongida milliy o‘zlikni anglash, ajdodlarga hurmat va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini shakllantiradi. Bu esa ularning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Ma’naviy qadriyatlar, jumladan, axloqiy me’yorlar, odob-axloq va e’tiqodiy qarashlar yoshlarning ichki dunyosini boyitib, ularni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, oilaviy qadriyatlar tarbiyaning asosiy muhitini tashkil etib, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida barqarorlikni ta’minlaydi.

Vatanparvarlik g‘oyalari va madaniy meros esa yosh avlodni yurt ravnaqi yo‘lida xizmat qilishga undaydi, ularda fuqarolik mas’uliyati, milliy g‘urur va fidoyilik kabi sifatlarni rivojlantiradi. Umuman olganda, mazkur qadriyatlarning uyg‘unligi yoshlarni har tomonlama yetuk, vatanparvar va ma’naviy barkamol shaxs etib tarbiyalashning asosiy omili hisoblanadi.



1-rasm. Vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda milliy va ma’naviy qadriyatlarning o‘rni.

Manba: Mazkur ma’lumotlar pedagogik kuzatuvlar, ilmiy-adabiyotlar tahlili va umumiy ijtimoiy tajribalar asosida shakllantirilgan namunaviy ko‘rsatkichlardir.

Diagrammada vatanparvar yoshlarni tarbiyalashga ta’sir etuvchi asosiy omillar foiz ko‘rinishida ifodalangan bo‘lib, har bir yo‘nalishning nisbiy ahamiyati aks ettirilgan.
Milliy qadriyatlar – xalqimizning urf-odatlari, an’analari, milliy g‘urur va tarixiy merosiga tayanadi hamda yoshlar ongida Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.
Ma’naviy qadriyatlar – axloqiy fazilatlar, ma’rifat, madaniyat, e’tiqod va ichki dunyo boyligini rivojlantirishga xizmat qiladi.
Zamonaviy omillar – internet, ommaviy axborot vositalari va global jarayonlar ta’sirida shakllanib, yoshlarning dunyoqarashi va fikrlash tarziga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.
Ushbu omillar o‘zaro bog‘liq holda yoshlarni har tomonlama barkamol, ongli va vatanparvar shaxs etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa

Vatanparvar yoshlarni tarbiyalash bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib, bunda milliy va ma’naviy qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir. Milliy qadriyatlar yosh avlodni o‘z xalqining tarixi, urf-odatlari va an’analariga hurmat ruhida tarbiyalaydi hamda ularda milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantiradi. Ma’naviy qadriyatlar esa yoshlarning ichki dunyosini boyitib, ularni axloqan yetuk, ma’rifatli va ongli shaxs bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy globallashuv sharoitida turli axborot oqimlari yoshlar ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli milliy va ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar bu omillar o‘zaro uyg‘un holda olib borilsa, yoshlar nafaqat bilimli, balki Vatanga sodiq, ijtimoiy faol va mas’uliyatli insonlar bo‘lib voyaga yetadi.

Shunday ekan, vatanparvarlik tarbiyasi uzluksiz jarayon bo‘lib, unda oila, ta’lim muassasalari, mahalla va jamiyatning barcha bo‘g‘inlari hamkorlikda faol ishtirok etishi zarur.

Takliflar:

1. Ta’lim dasturlariga milliy va ma’naviy qadriyatlarni chuqurroq singdirish, dars jarayonlarida ularni amaliy misollar orqali tushuntirish.
2. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida vatanparvarlikka oid maxsus tadbirlar, davra suhbatlari va tanlovlarni muntazam tashkil etish.
3. Oila institutining rolini kuchaytirish, ota-onalarga tarbiya masalalarida metodik tavsiyalar berish.
4. Mahalla tizimi orqali yoshlar bilan individual ishlashni yo‘lga qo‘yish va ularni ijtimoiy hayotga faol jalb etish.
5. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi sifatli va qiziqarli kontentlar yaratish, yoshlar uchun foydali platformalarni rivojlantirish.
6. Yoshlarni turli zararli g‘oyalardan himoya qilish maqsadida axborot madaniyatini oshirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.
7. Madaniy meros obyektlariga sayohatlar, tarixiy joylarga ekskursiyalar tashkil etish orqali yoshlarning tarixiy ongini mustahkamlash.
8. Sport, san’at va boshqa to‘garaklar orqali yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz, 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 2018, 30-bet.
2. Ortiqov N. Ma’naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. – T.: O‘zbekiston, 1997, 48-bet.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008, 60-bet.

ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

4. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at. – T.: Sharq, 1998, 279-bet.
5. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin, 2-jild. – T.: O‘zbekiston, 1996. – B. 177-180.